

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH VA ILMUY SALOHIYATNI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid **davlat dasturida** belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Farg'ona filialini (keyingi o'rnlarda — Filial);

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik holatini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha maxsus ilmiy laboratoriysi negizida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (keyingi o'rnlarda — Universitet) huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutini (keyingi o'rnlarda — Ilmiy tadqiqotlar instituti) tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

Filial O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda Moliya vazirligining G'aznachiligidagi shaxsiy hisobvaraqlariga ega bo'ladi;

Ilmiy tadqiqotlar instituti davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda Moliya vazirligining G'aznachiligidagi shaxsiy hisobvaraqlariga ega bo'ladi;

Filialning faoliyati 2021/2022 o'quv yilidan, Ilmiy tadqiqotlar institutining faoliyati 2021-yil 1-yanvardan boshlab tashkil etiladi.

3. Quyidagilar:

a) Filialning asosiy vazifalari etib belgilansin:

oliy ta'limga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiq jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi vazifalarni yuqori darajada bajarishga qodir malakali kadrlar tayyorlash;

xizmatlar va sog'lomlashtirish tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-texnologik vazifalarini hal etish, ilg'or xorijiy tajribadan foydalangan holda sport sohasiga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish va ilmiy ishlanmalarni amaliyatga tatbiq qilish;

o'quv va ilmiy loyihalarni amalga oshirish, ta'limga ilmiy izlanishlar jarayoniga mutaxassislarini keng jalb etish maqsadida ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalaridagi respublika va xorijiy yetakchi oliy ta'limga muassasalari hamda ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

oliy ta'limga zamонавија та'limga texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayonlarini joriy qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi hamda ochiq axborot-ta'limga muhitini rivojlantirishga ko'maklashish;

b) Ilmiy tadqiqotlar institutining asosiy vazifalari etib belgilansin:

jismoniy tarbiya va sport sohasining nazariy va ilmiy metodologik asoslarini yaratish;

jismoniy tarbiya va sport sohasida fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shuningdek xalqaro hamda mahalliy ilmiy va amaliy grant loyihalarini jalg etish;

yuqori malakali sportchilarning o'quv mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish davrida kompleks ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash yuzasidan zarur tavsiyalar ishlab chiqish;

sport turlari bo'yicha terma jamoalarni xalqaro musobaqalarga tayyorlashda ilmiy-metodik jihatdan ko'maklashish;

sport psixologiyasi, diyetologiyasi, reabilitatsiyasi va tibbiyoti bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, o'quv-qo'llanmalar, darsliklarni nashrga tayyorlash va chop etish;

aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali, ilmiy asoslangan vositalar va uslublarni ishlab chiqish;

sportchilarning funksional, biokimyoviy, psixodiagnostika, biomexanik ish qobiliyatini diagnostika qilish va korreksiyalash tizimini yo'lga qo'yish;

seleksiya ishlarini samarali tashkil etish maqsadida trener-seleksioner va mutaxassislarga metodik yordam berish;

aholining jismoniy tayyorgarligi holati natijalarini monitoring qilish va korreksiyalash bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar berish;

tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish maqsadida xorijdan yuqori malakali mutaxassislarni jalg etish;

respublikadagi ta'limning barcha turlari (maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim, shuningdek maktabdan tashqari, sport ta'limi) uchun jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha ta'lim standartlari va fan dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, shu jumladan audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar hamda boshqa turdag'i ilmiy-metodik materiallar tayyorlash.

4. Belgilansinki:

a) Filial faoliyatini moliyalashtirish:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnomada asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlarining grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

b) Ilmiy tadqiqotlar instituti faoliyatini moliyalashtirish:

binolar va inshootlarni saqlash xarajatlarini moliyalashtirish, shuningdek Institut xodimlari (ilmiy xodimlardan tashqari) mehnatiga haq to'lash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar;

davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirish uchun ajratilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari;

xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan mablag'lar;

xalqaro moliya va boshqa institutlar, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag'lar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

v) Filialga talabalarni qabul qilish soni belgilangan tartibda har yili O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari doirasida tasdiqlanadi;

Oldingi tahrirga qarang.

g) Ilmiy tadqiqotlar instituti direktori Universitet rektorining tavsiyasiga asosan turizm va sport vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

(4-bandning “g” kichik bandi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

d) Ilmiy-tadqiqotlar instituti xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalaridagi tegishli lavozimlarga belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari tatlbiq etiladi.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoniga asosan "d" kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son)

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2020-yil 1-dekabrdan boshlab Universitet respublikadagi barcha jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat tashkilotlari hamda sport federatsiyalari (uyushmalari) faoliyati ustidan o'quv va ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

6. Mazkur qarorning **5-bandida** ko'rsatilgan vazifani samarali tashkil qilish maqsadida Universitet huzurida jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yuritadigan Respublika ilmiy-uslubiy kengashi tashkil etilsin.

Quyidagilar Respublika ilmiy-uslubiy kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat tashkilotlari hamda sport federatsiyalari (uyushmlari) faoliyatining samaradorligini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sport-ta'limga muassasalarida mashg'ulotlar o'tkazishning uslubiy asoslarini tashkil etish;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va ilmiy jihatdan asoslash bo'yicha xulosalar berish;

sport sohasida faoliyat yuritayotgan yetakchi mutaxassislarni va ilmiy xodimlarni jalg etgan holda ishchi komissiyalar va ekspert guruhlarini tashkil etish.

7. Quyidaqilar:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti tuzilmasi [1-ilovaqa](#) muvofiq;

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga garang.

Universitet rektoriga, zarurat bo'lganda, Ilmiy tадqiqotlar instituti tuzilmasiga Turizm va sport vazirligi bilan kelishilgan holda xodimlarning belgilangan cheklangan umumiyligi soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

(7-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son)

8. Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Farg'ona viloyati hokimligining Farg'ona shahri, Marg'ilon ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan Farg'ona viloyati jismoniy tarbiya va sport boshqarmasining hamda Farg'ona shahri, Kimyogarlar ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan Farg'ona politexnika instituti balansidagi sobiq Farg'ona transport kasb-hunar kolleji bino va inshootlarini tegishli hududi bilan birgalikda Filialqa operativ boshqaruvi huquqi asosida tekin berish to'q'risidagi taklifi ma'qullansin.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Farg'ona viloyati hokimligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda Filialga berilayotgan bino o'rniga Farg'ona politexnika institutiga teng qiymatli bino airatish bo'vicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kirtsin.

9. Ilmiy tadqiqotlar instituti Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy manziliqa tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

10. Innovatsion rivojlanish vazirligi 2021-yildan boshlab har yili jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga va sohadagi muammolarning ilmiy yechimini ta'minlashga qaratilgan lovhalar tanlovlaringin muntazam e'lon qilinishini nazarda tutsin.

Oldingai tahrirqa garana.

11. O'zbekiston Respublikasi ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi Turizm va sport vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining takliflari asosida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent farmatsevtika instituti va boshqa oliy ta'lif muassasalarida sport tibbiyoti, farmakologiyasi, reabilitologiyasi, psixologiyasi va diyetologiyasi, Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda Andijon, Buxoro va Samarkand tibbiyot institutlari magistraturasida "Diyetologiya" va "Nutritsiologiya (ovqatlanish ilmi)" mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yuzasidan tashkiliy choralarni amalga oshirsin.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son)

Oldingi tahririga qarang.

12. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini shakllantirishda Turizm va sport vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga ko'ra Filial uchun ajratiladigan bino va inshootlarda ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish hamda Ilmiy tadqiqotlar institutida tashkil etiladigan laboratoriya xonalarini jihozlash ishlarining belgilangan tartibda kiritilishini nazarda tutsin.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son)

13. Jismoniy tarbiya va sport vazirligi:

bir oy muddatda Filial va Ilmiy tadqiqotlar institutining tegishlicha nizom va ustavlari tasdiqlanishi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, ularning yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirilishini ta'minlasin;

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar yetakchi xorijiy oliy ta'lif muassasalarining tajribasini o'rganib, kadrlar buyurtmachisi bo'lgan tashkilotlarning takliflarini inobatga olgan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha davlat ta'lif standartlari, malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini qayta ko'rib chiqsin va tasdiqlasin;

2020-yilning yakuniga qadar sport-ta'lif muassasalari hamda sport turlari bo'yicha federatsiyalar (uyushmalar) uchun bosma nashrlarni chop etish maqsadida Universitetda budjetdan tashqari mablag'lar asosida xo'jalik hisobidagi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Jismoniy tarbiya va sport" nashriyoti va bosmaxona faoliyatini tashkil etish choralarini ko'rsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur qaror ijrosi quyidagi tartibda amalga oshirilsin:

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari — turizm va sport vaziri A.A. Abduxakimov:

mazkur qarorning sifatli, to'liq va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlasin, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan mas'ul vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilsin hamda muvofiqlashtirsin, har oyda ularning rahbarlaridan bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarni qabul qilsin va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etsin;

Filial hamda Ilmiy tadqiqotlar institutining samarali faoliyat yuritishini ta'minlasin, Universitetda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha "yo'lxaritasi"da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishda mas'ul tashkilotlarga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatsin.

(14-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son)

Milliy teleradiokompaniya raisi A.D. Xadjayev, Milliy axborot agentligi bosh direktori A.K. Kuchimov — Jismoniy tarbiya va sport vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda sport turlarini o'rgatish metodikasi bo'yicha teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar tashkil etsin, shuningdek yoshlar, ayniqsa uyushmagan yoshlar o'rtasida sportni keng targ'ib qilish, ularni